



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilduza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmuro	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbasovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antirfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diyagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	



Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	
Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	



TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING MALAKAVIY VA PEDAGOGIK AMALIYOTLARI UZVIYLGINI TA'MINLASHNING METODIK MODELI

Mardonov Maqsudbek Maxmudovich

Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlarini alohida, bir-biridan uzilgan tadbirlar sifatida emas, balki kasbiy-metodik tayyorgarlikning ketma-ket va o'zaro bog'langan bosqichlari sifatida tashkil etish muammosi tadqiq etilgan. Normativ hujjatlar, pedagogik amaliyot nazariyasi, tajribaviy ta'lim, refleksiv faoliyat va texnologik-pedagogik bilimlar integratsiyasiga oid ilmiy manbalar mazmuniy jihatdan tahlil qilingan. Tahlil natijasida maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-jarayonli, diagnostik va natijaviy bloklardan tashkil topgan metodik model ishlab chiqilgan. Model amaliyot topshiriqlarini kurslar kesimida bosqichma-bosqich murakkablashtirish, maktab va ishlab chiqarish muhitidagi faoliyatni yagona kompetensiyalar tizimi asosida o'zaro bog'lash, mentorlik, raqamli monitoring va refleksiv tahlilni uyg'unlashtirishga asoslanadi. Taklif etilgan model nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uzilishni qisqartirish, talabalarda texnologik jarayonlarni pedagogik vazifalarga aylantirish qobiliyatini rivojlantirish hamda amaliyot natijalarini dalillarga asoslangan holda baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: texnologik ta'lim, malakaviy amaliyot, pedagogik amaliyot, uzviylik, metodik model, kasbiy kompetensiya, refleksiya, mentorlik, monitoring.

Abstract: The article examines the organisation of qualification and teaching practicums for technology education students as consecutive and interconnected stages of professional and methodological preparation rather than as isolated activities. Normative documents and research on practicum theory, experiential learning, reflective practice, and the integration of technological and pedagogical knowledge were analysed. A methodological model comprising goal-oriented, content, organisational-process, diagnostic, and outcome-oriented blocks was developed. The model is based on the progressive complication of practicum tasks, the integration of school and production settings through a unified system of competencies, and the combination of mentoring, digital monitoring, and reflective analysis. The proposed model is intended to reduce the theory–practice gap, develop students' ability to transform technological processes into pedagogical tasks, and enable evidence-based evaluation of practicum outcomes.

Key words: technology education, qualification practicum, teaching practicum, continuity, methodological model, professional competence, reflection, mentoring, monitoring.

Аннотация: В статье исследуется проблема организации квалификационной и педагогической практики студентов направления технологического образования как последовательных и взаимосвязанных этапов профессионально-методической подготовки. Проведён содержательный анализ нормативных документов и научных источников по теории педагогической практики, опытному обучению, рефлексивной деятельности и интеграции технологико-педагогических знаний. Разработана методическая модель, включающая целевой, содержательный, организационно-процессуальный, диагностический и результативный блоки. Модель основана на поэтапном усложнении заданий практики, взаимосвязи школьной и производственной среды посредством единой системы компетенций, а также сочетании наставничества, цифрового мониторинга и рефлексивного анализа. Её применение направлено на сокращение разрыва между теорией и практикой, развитие способности студентов преобразовывать технологические процессы в педагогические задачи и обеспечение доказательной оценки результатов практики.

Ключевые слова: технологическое образование, квалификационная практика, педагогическая практика, преемственность, методическая модель, профессиональная компетентность, рефлексия, наставничество, мониторинг.

KIRISH

Oliy pedagogik ta'limda amaliy tayyorgarlikning sifati bo'lajak o'qituvchining nazariy bilimlarni real kasbiy vaziyatlarda qo'llay olishi, faoliyat natijalarini tahlil qilishi va yangi sharoitlarga mos ravishda qaror qabul qilishi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi 637-son¹ "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ta'limning amaliy yo'naltirilganligi, davlat ta'lim standartlari va kasbiy kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlik ustuvor vazifa sifatida belgilangan^[1].

Pedagogik ta'limni rivojlantirishga doir qarorlarda esa bo'lajak pedagoglarni maktab muhiti bilan erta tanishtirish, amaliyot bazalari va oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash zarurati ko'rsatilgan^[2; 3]. Biroq amaliyot turlarining tashkiliy jihatdan mavjudligi ularning mazmunan uzviyligini avtomatik ravishda kafolatlamaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Texnologik ta'lim yo'nalishida ushbu muammoning hal etilishi ikki xil kasbiy makonning o'zaro integratsiyasini talab qiladi. Bir tomondan, materialshunoslik, konstruksiyalash, ishlab chiqarish texnologiyasi, mehnat xavfsizligi va loyihalashga oid amaliy faoliyat mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, darsni rejalashtirish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, didaktik vositalarni tanlash, baholash hamda tarbiyaviy ta'sirni tashkil etish vazifalari mavjud. Talaba texnologik operatsiyani puxta bajara olishi mumkin, ammo uni o'quv maqsadiga mos didaktik birlikka aylantirishda qiyinchilikka duch kelishi ehtimoli mavjud.

Shuningdek, metodik jihatdan puxta ishlab chiqilgan dars loyihasi amaliy texnologik jarayonning real shart-sharoitlari, resurslari va xavfsizlik me'yorlari bilan bog'lanmasa, kasbiy tayyorgarlikning yaxlitligi buziladi. Tadqiqotning maqsadi texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari o'rtasidagi maqsad, mazmun, faoliyat, nazorat va natijalar uzviyligini ta'minlaydigan metodik modelni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot savoli quyidagicha shakllantirildi: amaliyot turlarini qanday metodik mexanizm orqali ketma-ket, o'zaro to'ldiruvchi va dalillarga asoslangan kasbiy rivojlanish jarayoniga aylantirish mumkin?

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-konseptual xususiyatga ega bo'lib, unda normativ-huquqiy hujjatlarni mazmuniy tahlil qilish, pedagogik manbalarni qiyosiy o'rganish, tizimli yondashuv, strukturaviy-funksional modellash va kompetensiyaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Pedagogik amaliyotni tashkil etish tartibiga oid hujjatlardagi maqsadlar, subyektlarning vazifalari, nazorat shakllari va kutiladigan natijalar ajratib olindi^[4]. So'ngra mazkur elementlar texnologik ta'limning fan mazmuni hamda bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyati tarkibi bilan qiyoslandi. Metodologik asos sifatida Kolbning tajribaviy ta'lim sikli, Shyonning "faoliyat jarayonidagi refleksiya" va "faoliyatdan keyingi refleksiya" tushunchalari, Shulmanning pedagogik mazmun bilimlari hamda Mishra va Koehlnerning texnologik-pedagogik mazmun bilimlari konsepsiyasidan foydalanildi^[5-8].

Ushbu yondashuvlar amaliyot natijasini faqat bajarilgan ishlar soni bilan emas, balki tajribani konseptualashtirish, uni metodik qarorga aylantirish, qayta sinash va dalillar asosida takomillashtirish qobiliyati bilan baholash imkonini beradi. Modelni ishlab chiqishda beshta mezon qo'llanildi:

- *birinchidan*, amaliyotlarning umumiy yakuniy natijaga yo'naltirilishi;
- *ikkinchidan*, topshiriqlarning oddiy kuzatuvdan mustaqil loyihalash va amalga oshirish tomon bosqichma-bosqich murakkablashishi;
- *uchinchidan*, texnologik mazmun va pedagogik metodning har bir bosqichda birgalikda namoyon bo'lishi;
- *to'rtinchidan*, mentor, oliy ta'lim rahbari va talaba o'rtasida muntazam qayta aloqaning mavjudligi;
- *beshinchidan*, baholashning mahsulot, jarayon va refleksiv izohni qamrab olishi.

Mazkur mezonlar model bloklari va ular o'rtasidagi funksional aloqalarni belgilashda tayanch bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida malakaviy va pedagogik amaliyotlar uzviyligini ta'minlashga qaratilgan metodik model ishlab chiqildi. Modelning maqsadli bloki texnologik-pedagogik faoliyatni rejalashtirish, uni xavfsiz va sifatli amalga oshirish, o'quvchilarga tushunarli shaklda o'rgatish, natijalarni baholash hamda faoliyatni refleksiv jihatdan takomillashtirishga qodir mutaxassisni tayyorlashni nazarda tutadi. Maqsad alohida ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki kasbiy vazifalarni to'liq sikl asosida hal etish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

¹ <https://www.lex.uz/docs/-5013007#-5014174>



Mazmuniy blok o'zaro bog'liq to'rtta moduldan tarkib topadi: texnologik-operatsion, metodik-didaktik, kommunikativ-tashkiliy va refleksiv-dagnostik modullar.


Texnologik-operatsion modul materiallar, asbob-uskunalar, ish jarayonining ketma-ketligi, sifat va xavfsizlik masalalarini qamrab oladi. Metodik-didaktik modul o'quv maqsadini belgilash, mazmunni tanlash, topshiriq va ko'rsatmalarni loyihalash, differensial yondashuvni amalga oshirish hamda baholashni o'z ichiga oladi. Kommunikativ-tashkiliy modul o'quvchilar, mentor, maktab jamoasi va amaliyot rahbari bilan hamkorlikni tashkil etishni nazarda tutadi.

Refleksiv-dagnostik modul esa faoliyatga oid dalillarni to'plash, kamchiliklarning sabablarini aniqlash va keyingi faoliyat rejasini tuzishga yo'naltiriladi.

Tashkiliy-jarayonli blok besh bosqichdan iborat: diagnostik-tayyorgarlik, loyihalash, faoliyatni amalga oshirish, monitoring-refleksiya va korreksiya-transfer.

Diagnostik-tayyorgarlik bosqichida talabaning avvalgi bilim va ko'nikmalari, xavfsizlik bo'yicha tayyorgarligi hamda metodik ehtiyojlari aniqlanadi. Loyihalash bosqichida malakaviy amaliyotda o'rganilgan texnologik operatsiya o'quv mavzusi, dars maqsadi, amaliy topshiriq va baholash mezoniga aylantiriladi. Faoliyatni amalga oshirish bosqichida talaba mentor ko'magida yoki mustaqil ravishda texnologik va pedagogik vazifalarni bajaradi. Monitoring-refleksiya bosqichida kuzatuv varaqasi, video yoki fotodalillar, mahsulot namunasi, o'quvchilar ishlari va talabaning refleksiv tahliliga tayaniladi. Korreksiya-transfer bosqichida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun yangi usul tanlanadi va u keyingi kasbiy vaziyatga ko'chiriladi.

Amaliyotlar uzviyligini ta'minlovchi metodik sikl



1-rasm: Malakaviy va pedagogik amaliyotlar uzviyligini ta'minlashning jarayonli mexanizmi

Modelda topshiriqlarni kurslar va amaliyot bosqichlari bo'yicha spiralsimon tarzda murakkablashtirish nazarda tutiladi. Dastlab talaba tayyor texnologik yo'riqnoma va dars kuzatuv asosida tahlil olib boradi; keyingi bosqichda operatsiya kartasi, xavfsizlik yo'riqnomasi va o'quv topshirig'ini moslashtiradi; undan so'ng muammoli yoki loyihaviy dars fragmentini ishlab chiqadi; yakuniy bosqichda esa to'liq dars yoki mashg'ulotni mustaqil rejalashtiradi, o'tkazadi va natijalarni dalillar asosida tahlil qiladi. Shu tariqa bir xil kompetensiya har bir bosqichda yangi murakkablik darajasida namoyon bo'ladi.

Modelning diagnostik bloki motivatsion-maqsadli, texnologik-amaliy, metodik-loyihaviy, kommunikativ-tashkiliy va refleksiv-tahliliy mezonlarni o'z ichiga oladi. Har bir mezon uchun kuzatiladigan ko'rsatkichlar belgilanadi:

- vazifaning maqsadini anglash;
- operatsiyani xavfsiz va aniq bajarish;
- mazmunni o'quvchining imkoniyatlariga moslashtirish;
- dars jarayonini boshqarish va hamkorlik qilish;
- dalillar asosida o'z faoliyatini baholash.

Baholash "biladi – bajaradi – asoslaydi – takomillashtiradi" mantiqiy ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi. Bunda yakuniy mahsulotning sifati bilan bir qatorda qaror qabul qilish jarayoni ham e'tiborga olinadi. Natijaviy blokda talabaning integrativ kasbiy kompetentligi boshlang'ich, reproduktiv, produktiv va transformativ darajalarda tavsiflanadi. Boshlang'ich darajada talaba vazifani ko'rsatma asosida bajaradi, ammo texnologik va metodik qarorlar o'rtasidagi bog'liqlikni to'liq tushuntira olmaydi. Reproductiv darajada talaba mavjud namuna va algoritmi to'g'ri qo'llaydi. Produktiv darajada sharoitga mos usulni tanlaydi va uni asoslaydi. Transformativ darajada esa yangi vaziyat uchun muqobil yechim ishlab chiqadi, uning pedagogik va texnologik oqibatlarini oldindan baholaydi hamda o'z tajribasini keyingi faoliyatga ko'chira oladi.

Taklif etilgan model tajribaviy ta'limning "tajriba – refleksiya – konseptualashtirish – yangi sinov" sikliga mos keladi [5]. Biroq texnologik ta'lim kontekstida ushbu sikl ikki qatlamli xususiyatga ega: talaba avval texnologik faoliyatni bajaradi, keyin esa ushbu faoliyatni o'qitish mazmuni va metodi sifatida qayta loyihalaydi. Demak, refleksiya faqat "ishni qanday bajardim?" savoliga emas, balki "bu jarayonni o'quvchi uchun qanday tushunarli, xavfsiz va rivojlantiruvchi faoliyatga aylantiraman?" savoliga ham javob berishi lozim. Shulman tomonidan

asoslangan pedagogik mazmun bilimlari o'qituvchining fan mazmunini o'quvchi tushunadigan shaklga aylantira olish qobiliyatini markaziy kasbiy qobiliyat sifatida ko'rsatadi [7].

Texnologik ta'limda mazkur qobiliyat tarkibiga material xususiyatlarini tushuntirish, operatsiyani vizual va bosqichma-bosqich namoyish etish, xatolar xavfini oldindan ko'ra bilish, xavfsizlik qoidalarini o'rgatish va o'quv mahsulotining sifat mezonlarini sodda tilda ifodalash kiradi. Mishra va Koehlnerning TPACK modeli esa raqamli vositalardan foydalanish faqat texnik mahoratning o'zi emas, balki mazmun, pedagogika va texnologiyaning o'zaro muvofiqchiligi asoslangan faoliyat ekanligini ko'rsatadi [8]. Shuning uchun modelda raqamli monitoring vositalari alohida maqsad emas, balki dalillarni to'plash, qayta aloqani ta'minlash va refleksiyaning kuchaytiruvchi mexanizm sifatida qaraladi.

Modelda uzviylik kalendar ketma-ketligi bilan emas, balki maqsadlar, topshiriqlar, dalillar va baholash mezonlarining izchil rivojlanishi orqali ta'minlanadi. Malakaviy amaliyotda tayyorlangan texnologik xarita, mahsulot yoki xavfsizlik tahlili pedagogik amaliyotda dars mazmuni, o'quv topshirig'i va baholash rubrikasiga aylantiriladi. Modelni joriy etishda uchta tashkiliy shart muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, oliy ta'lim tashkiloti, maktab va amaliyot bazasi topshiriqlar hamda baholash mezonlarini birgalikda kelishib olishi kerak.

Ikkinchidan, mentorlar talabani ishini faqat nazorat qiluvchi emas, balki uning kasbiy mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantiruvchi hamkor sifatida tayyorlanishi zarur.

Uchinchidan, dalillarni to'plash tizimi sodda, xavfsiz va maxfiylik talablariga mos bo'lishi lozim. Aks holda, raqamli hisobot mazmunini refleksiyaning cheklab, formal yuklamaga aylanishi mumkin.

Tadqiqot konseptual model bilan cheklanganligi sababli, uning samaradorligi keyingi bosqichda tajriba-sinov ishlari orqali tekshirilishi zarur. Bunda tajriba va nazorat guruhlarida integrativ kompetensiyaning rivojlanish dinamikasi, mentor qayta aloqasining sifati, talaba refleksiya qilish chuqurligi hamda amaliyot topshiriqlarini bajarish barqarorligi qiyosiy o'rganilishi mumkin. Natijalarni faqat umumiy ball asosida emas, balki mezonlar kesimidagi o'zgarishlar va amaliy faoliyat dalillari asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligi ularni bir jadvalga joylashtirish yoki ketma-ket o'tkazish bilangina ta'minlanmaydi. Mazkur uzviylik umumiy kasbiy natija, spiral-simon tarzda murakkablashib boradigan topshiriqlar, yagona dalillar tizimi, mentorlik va refleksiv baholash orqali shakllanadi. Ishlab chiqilgan metodik model maqsadli, mazmunini, tashkiliy-jarayonli, diagnostik va natijaviy bloklarning o'zaro aloqasiga tayanadi.

Modelda malakaviy amaliyotda o'zlashtirilgan texnologik tajriba pedagogik amaliyotda didaktik mazmunga aylantiriladi, pedagogik amaliyotda aniqlangan metodik ehtiyojlar esa keyingi texnologik tayyorgarlik vazifalarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Natijada ikki amaliyot turi bir-birini takrorlamaydi, balki o'zaro to'ldiradi. Ushbu yondashuv talabani mahsulot yaratish, o'rgatish, baholash va o'z faoliyatini takomillashtirish qobiliyatlarini yagona kasbiy sikl doirasida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5013007#-5014174>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/4749364>
3. Kolb D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
4. Schön D. A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
5. Shulman L. S. *Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching* // *Educational Researcher*. – 1986. – Vol. 15, No. 2. – P. 4–14. – DOI: 10.3102/0013189X015002004.
6. Mishra P., Koehler M. J. *Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge* // *Teachers College Record*. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054. – DOI: 10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x.
7. Biggs J., Tang C. *Teaching for Quality Learning at University*. 4th ed. – Maidenhead: Open University Press, 2011. – 389 p.
8. Redecker C. *European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu*. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – DOI: 10.2760/159770.
9. Darling-Hammond L. *Constructing 21st-Century Teacher Education* // *Journal of Teacher Education*. – 2006. – Vol. 57, No. 3. – P. 300–314. – DOI: 10.1177/0022487105285962.
10. Nicol D. J., Macfarlane-Dick D. *Formative Assessment and Self-Regulated Learning: A Model and Seven Principles of Good Feedback Practice* // *Studies in Higher Education*. – 2006. – Vol. 31, No. 2. – P. 199–218. – DOI: 10.1080/03075070600572090.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.